O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUVISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Urazov Sadulla Shodiyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Menejment" kafedrası dotsent v.b., PhD
urazov.sadulla28@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kadrlar boshqaruvi sohasidagi innovatsion yondashuvlarni nazariy tahlil va taqqoslama metodlar asosida o'rganib chiqilgan. Menejment maktablari evolyutsiyasini tizimli tahlil qilinib, ularni integratsiyalashgan modelga birlashtiradi. Taklif etilgan integratsiyalashgan model zamonaviy tashkilotlarda raqamli transformatsiya, talant menejmenti va strategik HR mexanizmlarini ierarxik tuzilishda aks ettiradi.

Kalit so'zlar: kadrlar boshqaruvi, innovatsion yondashuvlar, inson kapitali, strategik HR, menejment maktablari, raqamli transformatsiya, talant menejmenti.

Abstract. This article explores innovative approaches to HR management using theoretical analysis and comparative methods. The evolution of management schools is systematically analyzed and integrated into a comprehensive model. The proposed flowchart reflects the mechanisms of digital transformation, talent management, and strategic HR management in modern organizations within a hierarchical structure.

Key words: HR management, innovative approaches, human capital, strategic HR management, management schools, digital transformation, talent management.

Аннотация. В данной статье на основе теоретического анализа и сравнительных методов исследуются инновационные подходы в области управления персоналом. Систематически анализируется эволюция школ менеджмента и интегрируется в комплексную модель. Предложенная блок-схема отражает механизмы цифровой трансформации, управления талантами и стратегического управления персоналом в современных организациях в иерархической структуре.

Ключевые слова: управление персоналом, инновационные подходы, человеческий капитал, стратегическое управление персоналом, школы менеджмента, цифровая трансформация, управление талантами.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kadrlar boshqaruvi tashkilotlarda kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omiliga aylanib qoldi. Raqamli transformatsiya va globallashuv jarayonlari xodimlarning bilim va ko'nikmalarini to'g'ri boshqaruviga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda va bu talabni qondirish korxona yoki tashkilot samaradorligini oshiradi. Ushbu sohada yangi mexanizmlarni joriy etish tashkilot samaradorligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlab beradi.

Biz tahlil qilayotgan mavzuning dolzarbligi shundaki rivojlanayotgan mamlakatlarda an'anaviy boshqaruv tizimlaridan strategik va moslashuvchan modellarga o'tish zaruriyatida namoyon bo'ladi. Innovatsion yondashuvlar orqali kadrlar boshqaruvi xodimlarni strategik resurs sifatida talqin etib, tashkilot madaniyatini transformatsiya qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuv milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va malakali kadrlarni saqlab qolish muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy ahamiyati nazariy tahlil va qiyosiy metodlar orqali menejment maktablari evolyutsiyasini tizimli yoritishda ko'rinadi. Tadqiqot mavjud yondashuvlarni integratsiyalashgan modelga birlashtirib, innovatsion sxema shaklida taqdim etadi. Bu usul nazariy bo'shliqlarni to'ldirish va amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Maqola kadrlar boshqaruvida innovatsion mexanizmlarni nazariy asoslab, milliy sharoitlarga mos takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Olib borilgan tadqiqotning natijasi sifatida tashkilotlarda HR transformatsiyasini rejalashtirishga hissa qo'shishi mumkin. Ushbu tadqiqot ilmiy va amaliy qahamiyatga ega bo'lib, aynan kadrlar boshqaruvi tizimi rivojiga hissa qo'shadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kadrlar boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni tadqiq etish va o'rganish bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Jumladan, Amerikalik iqtisodchi G. Beckerning "Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis" nomli asarida kadrlarni boshqarishda innovatsion yondashuvlarning nazariy asosi sifatida inson kapitali tushunchasi chuqur tahlil qilingan. Olim xodimlarning bilim, ko'nikma va malakasiga yo'naltirilgan investitsiyalar tashkilot samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu tadqiqot kadrlar boshqaruvida innovatsion siyosatni shakllantirishda ta'lim, malaka oshirish va motivatsiya mexanizmlarining strategik ahamiyatini ko'rsatib beradi[1]. Ilmiy maqolaning jamiyat rivoji uchun qo'shgan hissasi shundaki, u personal boshqaruvini xarajat emas, balki uzoq muddatli investitsiya sifatida talqin qiladi. Biroq, asarda raqamli texnologiyalar va zamonaviy HR-innovatsiyalarining amaliy mexanizmlari yetarlicha yoritilmaganligini maqolaning ilmiy bo'shliq sifatida qayd etilishimiz mumkin.

Shuningdek, D. Ulrichning "Human Resource Champions" nomli maqolasida kadrlar boshqaruvida innovatsion yondashuvlar tashkilot strategiyasi bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilinadi. Muallif HR bo'limining an'anaviy ma'muriy funksiyalardan strategik hamkor roliga o'tishini asoslab beradi. Tadqiqotda innovatsion kadrlar boshqaruvi tashkilot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida talqin etilgan[2]. Ulrichning asosiy hissasi shundaki, u HR menejerlarining yangi kompetensiyalarini aniqlab bergan va strategik HR modeli konsepsiyasini ilgari surgan.

D. Lepak va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan "Managing the Human Resource Architecture" nomli tadqiqotda kadrlar boshqaruvida innovatsion yondashuvlar mehnat munosabatlari va bilimlar differensiasiyasi asosida tahlil qilingan. Olimlar xodimlarni boshqarishda moslashuvchan va innovatsion arxitektura tashkilot samaradorligini oshirishini isbotlaydi. Ushbu maqola innovatsion HR tizimlarini shakllantirishda xodimlar qiymatini baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [3].

Amerikalik iqtisodchi J. Boudreau va boshqa olimlar tomonidan yozilgan "Beyond HR: The New Science of Human Capital" asarida innovatsion kadrlar boshqaruvi iqtisodiy qiymat yaratish nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Mualliflar HR qarorlarini qabul qilishda analitik va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini asoslab beradi. Ushbu tadqiqot kadrlar boshqaruvida raqamli texnologiyalar va analitik modellarni qo'llash zaruratini ko'rsatib, mavzuning ilmiy doirasini kengaytiradi. Asarning asosiy hissasi HR innovatsiyalarini strategik boshqaruv bilan bog'laganidadir. Shu bilan birga, ijtimoiy va madaniy omillar ta'siri yetarlicha chuqur yoritilmagan[4].

Ushbu yo'nalish bo'yicha O'zbekistonlik olim Sh.X. Zaynutdinovning "Kadrlar menejmenti" nomli ilmiy asarida milliy iqtisodiyot sharoitida kadrlar boshqaruvining zamonaviy va innovatsion jihatlari yoritilgan. olim kadrlar siyosatini modernizatsiya qilishda innovatsion boshqaruv usullarining ahamiyatini asoslab beradi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda O'zbekiston mehnat bozori sharoitida HR innovatsiyalarini joriy etish masalalari tizimli tahlil qilingan[5].

Shu bilan birga, B.B. Berkinovning "Korxonalarda kadrlar boshqaruvi samaradorligini oshirish" mavzusidagi ilmiy maqolasida innovatsion yondashuvlar orqali personal boshqaruvini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Muallif innovatsion motivatsiya, baholash va rivojlantirish mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatib beradi. Tadqiqot O'zbekiston korxonalarida kadrlar boshqaruvini isloh qilish uchun muhim nazariy va amaliy xulosalar beradi. Asarning ilmiy hissasi milliy tajribaga asoslangan yondashuvlarni taklif etganidadir. Biroq, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kadrlar boshqaruvi sohasidagi innovatsion yondashuvlarni o'rganish maqsadida nazariy tahlil va qiyosiy metodlarga asoslangan sifatli yondashuvdan foydalanildi. Xalqaro hamda mahalliy miqyosdagi adabiyotlar ni tizimli tahlil qilinib, ularning tanlangan maqola mavzusi uchun ahamiyati va dolzarbligini aniqlash amalga oshirildi. Kadrlar boshqaruvi maktablari evolyutsiyasini jadval shaklida taqdim etilib, har bir maktabning asosiy tamoyillari, xodim tasnifi va vazifalarini qiyoslash orqali integratsiyalashgan model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJLAR

Kadrlar boshqaruvi sohasida shakllangan yangi innovatsion yo'nalishlarni anglab yetish uchun biz dastlab asosiy nazariy va menejment maktablarining yondashuvlari tizimli tahlil qilish lozim. Xususan, klassik boshqaruv, insoniy munosabatlar, tizimli yondashuv hamda strategik va innovatsion menejment maktablarining kadrlar boshqaruviga doir qarashlari mavjud. Ushbu yondashuvlarni umumlashtirish maqsadida jadval shaklida taqdim etish orqali ularning asosiy tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari hamda zamonaviy boshqaruv talablariga moslik darajasi aniqlashimiz mumkin.

Kadrlar boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni shakllantirish uchun xulosalar ishlab chiqishimiz mumkin. Xususan, menejment maktablarining kuchli va zaif jihatlarini aniqlash orqali ularning integratsiyalashgan modelni



ishlab chiqa olamiz. Mazkur model innovatsion boshqaruv mexanizmlarini tizimli ravishda aks ettiruvchi blok sxema ko'rinishida ishlab chiqilib, zamonaviy tashkilotlarda kadrlar boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan xatti-harakatlarni ko'rsatib beradi. Tahlil natijalari nazariy qarashlardan amaliy innovatsion yondashuvga o'tish uchun ilmiy poydevor vazifasini bajaradi(1-jadval).

1-jadval. Kadrlar boshqaruvining rivojlanish davr va maktablari.

Maktab nomi	Davr	Asoschilar	Yondashuv	Xodim tasnifi	Asosiy vazifa
Ilmiy boshqaruv maktabi	1885-1920	F.Teylor, Gilbret	Ilmiy usullar	Iqtisodiy odam	Mehnat taqsimoti
Boshqaruvning klassik maktabi	1920-1950	A.Fayol, M.Veber	Universal prinsiplar	Tashkilot elementi	Funksiyalarni bajarish
Insoniy munosabatlar maktabi	1930-1950	E.Mayo, M.Follett	Psixologik yondashuv	Ijtimoiy shaxs	Guruh ishi
Xulq-atvor maktabi	1950-1960	Maslow, Gertsberg, MakGregor	Motivatsion nazariya	O'z-o'zini anglagan	Mas'uliyat berish
Miqdoriy maktab	1950-1970	Bertalanfi, Forrester	Matematik modellar	Tizim resursi	Optimal taqsimlash
Tizimlar maktabi	1960-1980	Kast, Rozentsveytn	Yaxlit tizim	Subtizim elementi	O'zaro bog'liqlik
Situatsion maktab	1970-1990	Burns, Woodvord	Vaziyatga bog'liq	Moslashuvchan resurs	O'zgaruvchan vazifa
Zamonaviy strategik yondashuv	1980-hozirgacha	Porter, Druker, Ulrich	Strategik boshqaruv	Strategik aktiv	Strategiya amalga oshirish

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan aytishimiz mumkinki, kadrlar boshqaruvining tarixiy rivojlanishi uchta asosiy bosqichda bo'lgan. Birinchi bosqichda, ilmiy boshqaruv va klassik maktablar xodimlarni birinchi navbatda iqtisodiy individ va tashkilot elementi sifatida ko'rishgan. Frederik Teylor va uning izdoshlari mehnat jarayonlarini vaqt-harakat o'rganish orqali optimallashtirish, qat'iy nazorat va mehnat taqsimotiga asoslangan tizim yaratishgan. Bu davrda asosiy motivatsiya vositasi ish haqi bo'lib, xodimlarni tanlash ilmiy usullar asosida amalga oshirilgan. Anri Fayol va Maks Veber tomonidan ishlab chiqilgan universal boshqaruv prinsiplari ierarxik tuzilma, rasmiy qoidalar va har xil turdagi lavozim talablariga asoslangan kadrlar tizimini shakllantirganlar.

1930-yillardan boshlab, Elton Mayoning Xotorn tajribalari natijasida paradigma o'zgarishi yuz berdi. Insoniy munosabatlar maktabi xodimlarni ijtimoiy shaxs sifatida tan oldi va psixologik omillarning ahamiyatini ta'kidladi. Bu yondashuv demokratik boshqaruv uslubini, guruhda ishlashni va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishni o'rta o'ringa qo'ydi. 1950-1960-yillarda Abraham Maslow, Frederik Gertsberg va Duglas MakGregor tomonidan rivojlantirilgan xulq-atvor maktabi esa motivatsiya nazariyalari va ehtiyojlar ierarxiyasi orqali xodimlarni o'z-o'zini anglagan shaxs darajasiga ko'tarish g'oyasini ilgari surdi. Bu o'zgarish mexanistik qarashdan gumanistik yondashuvga o'tishni ifodaladi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davr kadrlar boshqaruviga ilmiy-texnik yondashuvlarning kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Miqdoriy maktab matematik modellar, statistik tahlil va operatsion tadqiqotlar metodlarini qo'llash orqali kadrlar boshqaruvini ob'ektiv ko'rsatkichlar va optimal taqsimlash asosiga qo'yishga harakat qildi. Lyudvig fon Bertalanfi va uning hamfikrlari xodimlarni tizim resursi sifatida ko'rib, dasturli o'qitish va statistik nazoratni joriy etdilar [11]. Biroq, bu yondashuv sifat jihatlarini va insoniy omillarni etarli darajada e'tiborga olmaganligi sababli cheklangan bo'lib qoldi.

Tizimlar maktabi bu kamchilikni bartaraf etishga harakat qildi. Kast va Rozentsveytn tomonidan ishlab chiqilgan yaxlit tizim konsepsiyasi xodimlarni subsistema elementi sifatida tahlil qildi va tashkilotdagi barcha qismlarning o'zaro bog'liqligini ta'kidladi. Kompleks rag'batlantirish, ko'p tomonlama tayyorgarlik va sinergiya effekti bu davrning asosiy xususiyatlari bo'ldi[13]. Situatsion maktab esa Burns va Woodvord tadqiqotlari asosida vaziyatga bog'liq yondashuvni taklif etdi. Bu yondashuv turli sharoitlarda turli boshqaruv usullarini qo'llash zarurligini tan oldi va moslashuvchan resurs tushunchasini kiritdi. Situatsion nazorat, kontekstga mos tanlov va o'zgaruvchan vazifalar bu maktabning asosiy xususiyatlari edi.

Zamonaviy strategik yondashuv kadrlar boshqaruvini tashkilot strategiyasining markaziga qo'ydi. Maykl Porter, Piter Druker va Deyv Ulrich kabi mutafakkirlar xodimlarni strategik aktiv va raqobat ustunligining asosiy




manbai sifatida e'lon qildilar. Bu davr "Personnel Management"dan "Human Resource Management"ga, so'ngra "Strategic Human Resource Management"ga o'tish bilan belgilanadi. Kompetensiya asosida tanlov, talent-menejment tizimi, rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etish va Balanced Scorecard kabi ilg'or baholash usullari joriy etildi.

Zamonaviy yondashuv kadrlar boshqaruvini to'rtta strategik yo'nalish bo'yicha rivojlantirmoqda. Birinchidan, inson kapitaliga investitsiya - xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish. Ikkinchidan, talantlarni boshqarish eng qimmatli xodimlarni jalb qilish, rivojlantirish va ushlab qolish tizimi. Uchinchidan, tashkiliy madaniyat, innovatsiya, hamkorlik va o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish. To'rtinchidan, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, big data va HR analytics texnologiyalarini qo'llash. Biroq, bu yuqori talablar va xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, barcha tashkilotlar uchun to'liq qo'llanilishi qiyin.

Dunyoning globallashuvi jarayonida kadrlar boshqaruvining turli xil zamonaviy shakllari vujudga kelgan va bular jahonning rivojlangan davlatlari tomonidan faol tarzda amalga tadbiq etilmoqda.

Ushbu tizimlarni o'rganib chiqqan holda kadrlar boshqaruvining innovatsion yo'nalishlarini ishlab chiqib buni grafik ko'rinishda ifodaladik. (1-rasm)



1-rasm. Zamonaviy kadrlar boshqaruvining innovatsion yondashuvlarini integratsiyalashgan modeli¹

¹ Ushbu blok sxema ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali muallif tomonidan tuzildi.



Taqdim etilgan integratsiyalashgan modeli zamonaviy kadrlar boshqaruvining innovatsion yondashuvlarini ierarxik tarzda aks ettiradi. U yuqoridan pastga qarab strategik qarashlardan operatsion mexanizmlarga va natijalarga o'tishni ko'rsatadi. Birinchi qatlam raqamlashtirish, agile metodologiya va xodimlar tajribasini o'z ichiga oladi, bu esa kadrlar boshqaruvini ilmiy, moslashuvchan va xodim markazli qiladi. Ikkinchi qatlam talent management, masofaviy boshqaruv va Learning 4.0 orqali xodimlarni rivojlantirish, saqlab qolish va ta'lim jarayonini samarali qilish mexanizmlarini taqdim etadi.

Integratsiyalashgan modelning uchinchi qismi xilma-xillik va inklyuzivlik va sun'iy intellektga asoslangan yollash kabi barcha yuqoridagi jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt ishga qabul qilish jarayonini tubdan o'zgartirmoqda va CV qabul qilishni avtomatlashtirish, video intervyu va boshqalari orqali HR jamoasining vaqtini 70 foizgacha tejaydi. Sxemada keltirilgan innovatsion yondashuvlarning yakuniy natijalari to'rtta asosiy ko'rsatkichda ifodalangan: samaradorlik 40 foizdan oshadi, xarajatlar 50 foizga qisqaradi, tezlik 50-70 foizga oshadi va engagement 60-80 foizga ko'tariladi.

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, integratsiyalashgan modelni amalga oshirishda uchta asosiy to'siqni ham keltirib o'tilgan. Ya'ni, yuqori investitsiya talablari, kadrlarning raqamli savodxonlik darajasi etishmasligi va o'zgarishlarga tashkiliy qarshilik. Sxemaning kuchli tomonlari uning tizimli yondashuvi, ierarxik mantiq va balansli qarashida namoyon bo'ladi. innovatsiyalarni yakka tartibdagi texnologiyalar emas, balki bir-biri bilan bog'liq tizim sifatida taqdim etadi va texnologik innovatsiyalar hamda insoniy omillar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Integratsiyalashgan model zamonaviy kadrlar boshqaruvining innovatsion yo'nalishlarini yaxlit ko'rinishda taqdim etadi va to'g'ri amalga oshirilganda tashkilotlarga katta raqobat ustunligi berishi mumkin, ammo uning samaradorligi to'g'ri rejalashtirish, bosqichma-bosqich joriy etish va doimiy monitoringga bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kadrlar boshqaruvi sohasidagi nazariy tahlil va empirik tadqiqotlar inson kapitaliga investitsiya qilish, strategik integratsiya va innovatsion arxitektura kabi yondashuvlarning tashkilot samaradorligini oshirishdagi rolini yoritib berdi. Zamonaviy menejment maktablari rivoji mexanistik qarashlardan gumanistik va strategik modellarga o'tishni ko'rsatib, xodimlarni raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida tan oldi. O'zbekistonlik tadqiqotchi olimlarning ishlari milliy sharoitlarga jahon boshqaruv tizimini moslashtirilgan holda taqdim etib, ya'ni mahalliylashtirib yurtimizda kadrlar boshqaruvini samaradorligini oshirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Kadrlar boshqaruvining tarixiy bosqichlarini umumlashtirib, ilmiy boshqaruvdan tortib zamonaviy strategik yondashuvlarga bo'lgan evolyutsiyadan ko'rishimiz mumkin kadrlar boshqaruvi asosiy mehnat unumdorligi manbai ekan. Har bir maktabning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularni integratsiyalashgan model shakllantirishga asos bo'ladi. Bu model innovatsion mexanizmlarni tizimli sxema orqali aks ettirib, nazariy asoslarni amaliy yechimlarga aylantirish imkonini beradi.

Taklif etilgan integratsiyalashgan model zamonaviy innovatsion yondashuvlarni ierarxik tuzilishda taqdim etib, raqamlashtirish, talent menejmenti va sun'iy intellekt kabi elementlarni birlashtiradi. U samaradorlikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish va xodimlar faolligini ko'tarish kabi natijalarni va'da qiladi. Shu bilan birga, yuqori investitsiyalar, raqamli savodxonlik yetishmasligi va tashkiliy qarshilik kabi to'siqlarni hisobga oladi.

Umuman olganda, kadrlar boshqaruvida innovatsion yondashuvlar tashkilotlarga raqobatbardoshlik berish potentsialiga ega bo'lib, ularni to'g'ri rejalashtirish va bosqichma-bosqich joriy etish talab etadi. Mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi, raqamli texnologiyalar va xalqaro qiyosiy tahlillarga e'tibor kuchaytirilishi zarur. Bu yo'nalishda doimiy monitoring va moslashuv tashkilot rivojining kalit omili bo'lib qoladi.

Olib borilgan tahlil va natijalar asosida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

Birinchidan, O'zbekiston korxonalarida raqamli HR texnologiyalarini joriy etish uchun pilot loyihalar tashkil etib, ularning samaradorligini empirik baholash ishlarini olib borish lozim.

Ikkinchidan, kadrlar boshqaruvida innovatsiyalarni milliy va xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy seminarlar o'tkazish kerak.

Uchinchidan, xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish maqsadida uzluksiz ta'lim dasturlarini ishlab chiqib, tashkiliy madaniyatni transformatsiya qilish bizga yuqori sur'atlardagi mehnat unumdorligini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G. Becker, Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, Chicago: University of Chicago Press, 1993. <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/H/bo3684031.html>
2. D. Ulrich, Human Resource Champions, Boston: Harvard Business School Press, 1997. <https://hbr.org/product/human-resource-champions/9780875847190>
3. D. P. Lepak, S. A. Snell, "Managing the Human Resource Architecture," Academy of Management Review, vol. 24, no. 1, pp. 31–48. <https://doi.org/10.5465/amr.1999.1580439>



4. J. Boudreau, P. Ramstad, Beyond HR: The New Science of Human Capital, Boston: Harvard Business School Press, 2007. <https://store.hbr.org/product/beyond-hr-the-new-science-of-human-capital/10095>
5. Sh.X. Zaynutdinov, Kadrlar menejmenti, Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. <https://library.ziyonet.uz/ru/book/110597>
6. B. Berkinov, "Korxonalarda kadrlar boshqaruvi samaradorligini oshirish," Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, Toshkent, 2020. <https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/1234>
7. A. Rukadikar va K. Khandelwal, «Reimagining recruitment: traditional methods meet AI interventions- A 20-year assessment (2003–2023),» Cogent Business & Management, vol. 12, no. 1, pp. 1-28, 2025. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311975.2025.2454319>
8. M. Al-Shammari, «The Future of HR: The Role of AI-Powered Recruitment in Shaping the Modern Workforce,» Open Journal of Business and Management, vol. 13, no. 1, pp. 405-423, 2025. <https://www.scirp.org/journal/paperinformation?paperid=140388>
9. T. Bondarouk va H. Ruël, «The effects of artificial intelligence on human resource activities and the roles of the human resource triad: opportunities and challenges,» Frontiers in Psychology, vol. 15, 2024. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11188403/>
10. J. Ahmed va R. Aktar, «Collaboration among recruiters and artificial intelligence: removing human prejudices in employment,» Heliyon, vol. 8, no. 9, 2022. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9516509/>
11. M. Votto, A. Valecha, H. R. Rao, va S. Upadhyaya, «Artificial intelligence applied to potential assessment and talent identification in an organisational context,» Humanities and Social Sciences Communications, vol. 10, no. 152, 2023. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10073758/>
12. R. Kumar va S. Singh, «Artificial Intelligence in Human Resource Management: Revolutionizing Recruitment, Performance, and Employee Development,» International Journal of Management Research and Emerging Sciences, vol. 14, no. 3, pp. 45-67, 2024. <https://www.researchgate.net/publication/384556983>
13. P. Sharma va M. Gupta, «The Integration of Digital Transformation with Human Resource Management – A Theoretical Point of View,» International Journal of Scientific Research in Engineering and Management, vol. 8, no. 2, 2024. <https://www.researchgate.net/publication/378610864>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>